

SAYLOVOLDI TASHVIQOTINI OLIB BORISH HAMDA UNING SHAKLLARI VA USULLARI

Narqulova Muqaddas

Urganch davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Email: gum_kafedra@mail.ru

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.10.2025

Revised: 29.10.2025

Accepted: 30.10.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Saylovoldi tashviqoti,
saylov kampaniyasi,
nomzod, ishonchli vakil,
siyosiy partiya,
tashviqot materiallari,
saylovchilar bilan
uchrashuv, Markaziy
saylov komissiyasi.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada saylov jarayonlari o'tkazilishida saylovoldi tashviqotini tashkil qilishning zarurati va ahamiyati, shuningdek mazkur jarayonlarni qonunga muvofiq tarzda olib borish hamda uning usullari va shakllari xususida atroflicha so'z yuritilgan..

Kirish. Ma'lumki, demokratik prinsiplar ta'minlanishida fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki juda muhim. Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Fuqarolarning o'z siyosiy huquqlarini bilishi, o'z navbatida ulardan foydalanishi fuqarolik jamiyati shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi. Saylov jarayonlari o'tkazilishida saylovoldi tashviqotini tashkil etish, bu jarayonlarni qonunga muvofiq tarzda olib borish zarur.

Masalaning mazmuni. Saylovlardagi eng muhim jarayon, saylovoldi tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy

partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir. Saylovoldi tashviqoti nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanib, saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi. Noto'g'ri axborotni, shuningdek nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatishga ham yo'l qo'yilmaydi.

Quyidagilarning saylovoldi tashviqotini olib borishi taqiqlanadi:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarning;

- saylov komissiyalari a'zolarining;

- diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o'z mansab va xizmat mavqeyidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyaning yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

- Tashviqot quyidagicha tarzda olib boriladi:

- siyosiy partiyaning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni o'zining deputatlikka nomzodlarini yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni nomzodni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;

- nomzod to'g'risidagi axborotni uni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish.

- Tashviqot omma oldida ochiq munozaralar, bahslar, matbuot konferensiyalari, fuqarolarning yig'ilishlari, intervyular, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, rolklarni joylashtirish shaklida olib borilishi mumkin.

Tashviqot:

- ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'i orqali;

=====

- bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish orqali;

- saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Tashviqot olib borilayotganda davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda hajmiga ko'ra bir xil bo'lgan efir vaqtini va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi. Davlat ommaviy axborot vositalarida haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin. Nodavlat ommaviy axborot vositalarida qonunchilikka muvofiq efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha uchun teng va bir xil bo'lishi kerak. Tashviqot maqsadida ommaviy axborot vositalaridan bepul foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalarning fikrini inobatga olgan holda tegishli saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Nomzodlar va siyosiy partiyalarga bosma, ko'rgazmali, audiovizual materiallarni, fonogrammalarni, bosma mahsulotning elektron shakllarini va boshqa tashviqot materiallarini moneliqsiz chiqarish hamda tarqatish uchun teng sharoitlar yaratiladi. Tashviqot materiallari O'zbekiston Respublikasi hududida tayyorlanishi kerak.

Bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- tashviqot materiallarini tayyorlagan yuridik shaxsning nomi (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) va u haqdagi boshqa ma'lumotlar;

- tashviqot materiallariga buyurtma bergan yuridik shaxsning nomi (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi);

- tashviqot materiallarining adadi, chiqarilgan sanasi to'g'risidagi axborot.

Nomzodlarga va siyosiy partiyalarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali tashviqot uchun teng sharoitlar yaratiladi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar, deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o'tkaziladi. Saylovchilar bilan uchrashuvlarni o'tkazish joyi va vaqti haqida okrug yoki uchastka komissiyasiga ma'lum qilinadi. Saylovchilar bilan uchrashuvlar kabi ommaviy tadbirlar ularning o'tkazilish joyi va vaqti haqida tegishli tuman (shahar) hokimliklari kamida uch kun oldin yozma ravishda xabardor qilingan holda o'tkaziladi. Bunda ushbu ommaviy

tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uchrashuvlar o'tkazish uchun jihozlangan xonalarni bepul ajratishi, zarur ma'lumot va axborot materiallarini olishda yordam ko'rsatishi shart.

Nomzod yoki uning ishonchli vakili boshqa nomzod yoki uning ishonchli vakili bilan birgalikda saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishga yoxud boshqa nomzod tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi butun hududida saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Okrug saylov komissiyalari saylov okrugi hududda saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Saylovoldi tashviqotini olib borish shartlari va tartibini buzganlik qonunchilik hujjatlariga muvofiq jinoiy va ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xulosa. Saylovoldi tashviqotlari saylovchilarga nomzodlar, ularning faoliyati hamda istiqbolda ilgari surayotgan reja hamda dasturlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Saylovchilarga o'zlari hamda jamiyat uchun ahamiyatli va hayotiy, kelgusida taraqqiyot uchun xizmat qiluvchi g'oyalarni ilgari surayotgan, tashabbuskor nomzodni tanlashni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent-2023
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. 25.06.2019.
3. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarori. 14.04.2021
4. Lex.uz